



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Dilshod Komolov, Asilbek Zulfiqorov YANGI O‘ZBEKISTONDA ADVOKATURA INSTITUTINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	5
2. Faxriddin Yormatov, Nurullo Tursunov JAMIYAT HAYOTIDA NURONIYLARNING TUTGAN O‘RNI VA YANGI O‘ZBEKISTONDA ULARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING AMALIY IFODASI.....	11
3. Nodira Toliboyeva O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI TA‘LIM TIZIMIGA JALB ETISH: TARIXIY TAJRIBA VA MUAMMOLAR.....	18
4. Гулчехра Дадамирзаева СОВЕТЛАРНИНГ КОСИБ-ХУНАРМАНДЧИЛИК ИШЛАБ ЧИҚАРИШИ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ.....	23
5. Akmal Mengliboyev QIZIL ARMIYA BOSQINIGA QARSHI SURXON VOHASIDA KURASHNING BOSHLANISHI.....	32
6. Ulug‘bek Mirzaliyev, Farhod Umurzoqov SIRDARYO VA JIZZAX VILOYATLARIDAGI URBANIZASIYA JARAYONLARI.....	39
7. Абдисаттор Қосимов ЧОРВАЧИЛИКДА СУРХОН-ШЕРОБОД ВОҲАСИ АСРИЙ ХЎЖАЛИК АНЪАНАЛАРИ.....	45
8. Sardorbek Rahimberdiyev TRANSMILLIY MIGRATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEK MIGRANTLARINING MADANIY IDENTIFIKATSIYASI VA KUNDALIK HAYOT STRATEGIYALARI (KOREYA RESPUBLIKASI MISOLIDA).....	49
9. Shavkat Shapiyev FARHOD GIDRO ELEKTR STANSIYASI – O‘ZBEKISTONNING ENERGETIKA USTUNI.....	57
10. Diyora Chorshanbiyeva 2016-YILDAN KEYIN O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVINING TRANSFORMATSIYASI VA YOSHLAR MASALASI.....	65
11. Sitara Nosirova DOSTONLARDA O‘ZBEK OILASINING IJTIMOIIY HAYOTDAGI KO‘RINISHLARI.....	72
12. Lutfillo Mamasaidov O‘ZBEKISTONDA SAVODSIZLIKNING TUGATILISHI VA YANGI TA‘LIM TIZIMINI TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN.....	76



Faxriddin Yormatov,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
tarix kafedrasini mudiri.
Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Nurullo Tursunov,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
tarix kafedrasini dotsenti,
tarix fanlari doktori (DSc)

**JAMIYAT HAYOTIDA NURONIYLARNING TUTGAN O‘RNI VA YANGI
O‘ZBEKISTONDA ULARNI HAR TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING
AMALIY IFODASI**

For citation: Faxriddin Yormatov, Nurullo Tursunov. THE PLACE OF ELDERLY PEOPLE IN SOCIAL LIFE AND PRACTICAL EXPRESSION OF THEIR COMPREHENSIVE SUPPORT IN THE NEW UZBEKISTAN. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18941921>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yangi O‘zbekistonda nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarning amaliy ifodasi hamda ularning davlat va jamiyat hayotida, milliy urf-odat va an‘analarni rivojlantirishdagi ijtimoiy faolliklari haqida atroflicha ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Prezident, Oliy Majlis, Jamiyat Qaror, Nuroniylar, Ijtimoiy himoya, Qo‘llab-quvvatlash, Keksalar haftaligi Yolg‘iz keksalar, mehnat faxriylari, Saxovat” va “Muruvvat, Keksalar maslahati.

Фахриддин Ёрматов,
кандидат исторических наук, доцент,
заведующий кафедрой «История»
Термезского университета экономики и сервиса
Нурулло Турсунов,
доктор исторических наук (DSc),
доцент кафедры «История»
Термезского университета экономики и сервиса

**МЕСТО ПОЖИЛЫХ ЛЮДЕЙ В ЖИЗНИ ОБЩЕСТВА И ПРАКТИЧЕСКОЕ
ВЫРАЖЕНИЕ ИХ ВСЕСТОРОННЕЙ ПОДДЕРЖКИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ**

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлено практическое выражение положительных усилий по всесторонней поддержке пожилых людей в Новом Узбекистане, а также подробно рассмотрена их социальная активность в жизни государства и общества, в развитии национальных традиций и обычаев.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, Президент, Олий Мажлис, решение общества, пожилые люди, социальная защита, поддержка, Неделя пожилых людей, одинокие пожилые, ветераны труда, «Саховат» и «Муруват», консультации для пожилых.

Faxriddin Yormatov,

PhD in History, Associate Professor
Head of the Department of History
Termez University of Economics and Service

Nurullo Tursunov,

Doctor of Historical Sciences (DSc),
Associate Professor, Department of History,
Termez University of Economics and Service

THE PLACE OF ELDERLY PEOPLE IN SOCIAL LIFE AND PRACTICAL EXPRESSION OF THEIR COMPREHENSIVE SUPPORT IN THE NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article provides comprehensive information about the practical implementation of positive initiatives aimed at comprehensively supporting the elderly in New Uzbekistan. It also examines their social activity in state and public life, as well as their role in the development and preservation of national customs and traditions.

Index Terms: New Uzbekistan, President, Oliy Majlis (Parliament), society, resolution, elderly people, social protection, support, Elderly Week, Lonely elderly people, labor veterans, “Sakhovat” (Charity) and “Muruvvat” (Compassion) care institutions, Council of Elders.

1. Dolzarbligi:

Jamiyat hayotida yoshi ulug' va yetarli bilim hamda hayot tajribasiga ega nuroniyning tutgan o'рни nihoyatda beqiyosdir. Ularning yoshlarning har tomonlama barkamol bo'lib voyaga yetishishi va hayotda o'z o'rniga ega bo'lishlari ucnun berayotgan maslahatlarini hech narsa bilan baholab bo'lmaydi. Yangi O'zbekiston deb atalayotgan hozirgi davrda o'tkazilgan o'rganish ishlari “Nuroni” jamg'armasi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, uning manzilliligini ta'minlash, keksa yoshdagilar, imkoniyati cheklangan odamlar va yolg'iz keksalarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordam darajasi va sifatini ko'tarishni, shuningdek joylarda tuman va shaharlar aholisining zamonaviy diagnostika va davolanish uslublaridan foydalanish imkonlarini ta'minlaydigan tubdan yangi yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi.

Bu muammolarni birin-ketin bartaraf etish mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan amalga oshirila boshlanganligini hamda mazkur sohadagi ishlar yangi bir tarixiy bosqichga ko'tarilganligini alohida qayd etish maqsadga muvofiq.

2. Metodlar:

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2016 yil 28-dekabr kuni “O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash “Nuroni” jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni va “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”[1]gi qarorni imzoladi.

Ushbu qaror yuqoridagi qayd etilgan muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis palatalariga navbatdagi Murojaatnomasida “Ishlayotgan pensionerlarga pensiyani to‘liq to‘lash tartibi joriy etildi. Ijtimoiy yordamga muhtoj va ehtiyojmand aholi uchun nafaqa miqdori 2 barobar ko‘paytirildi.

Keksalar, jumladan, yolg‘iz keksalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yaxlit va ta‘sirchan tizim yaratish zarur. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda Aholini ijtimoiy himoya qilish konsepsiyasini ishlab chiqishi, yuqorida qayd etilgan yo‘nalishlar bo‘yicha ustuvor vazifalarni belgilashi lozim.[2] degan edi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentyabrdagi “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [3] asosida “1 oktyabr – Xalqaro keksalar kuni” ni mamlakatimizda munosib nishonlash maqsadida har yili oktyabr oyining birinchi haftasi “Keksalar haftaligi” etib belgilandi. Aytish lozimki, ushbu muhim choralar keksalarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga ijtimoiy faollik ko‘rsatishda sharoit yaratib berish, mahalla va oilalardagi turli masalalarni keng jamoatchilik, xususan, keksa avlod vakillari hamkorligida hal etish imkoniyatini berdi. Ta‘kidlash lozimki, mazkur targ‘ibot tadbirlari mamlakatimizda umrguzaronlik qilayotgan keksa avlod vakillariga e‘tibor va g‘amxo‘rlikni yanada kuchaytirish, turmush sharoitlarini yaxshilash, faol va mazmunli hayot kechirishlarini ta‘minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xalqimiz azaldan oila atalmish qo‘rg‘onni muqaddas atab, uning buzilishi natijasida farzandlarning ota-ona mehrisiz kamolga yetishini jamiyatning eng og‘riqli jihatlaridan biri sanab keladi. Uning oldini olish va oilalarda yuzaga kelayotgan nizo va ziddiyatlarni ijobiy hal etish maqsadida mahalla-ko‘y, ayniqsa nuroniy va kayvoni insonlar yordami beqiyos ekanligini barchamiz yaxshi anglaymiz. Bugungi kunda ham oilaviy ajrimlarning oldini olishda xalqimizning necha asrlik ushbu an‘analaridan samarali foydalanib kelinmoqda. Statistik ma‘lumotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, joriy yil davomida ajralish yoqasiga kelib qolgan 11 490 ta shu kabi oilaning saqlab qolinishiga erishildi. 5 865 ta notinch oilalardagi vaziyat esa nuroniylar va keng jamoatchilik vakillari aralashuvi bilan ijobiy tarfaga o‘zgardi. Albatta, bu kabi minglab oilalarning saqlab qolinishida bizning fidoyi va faol nuroniylarimiz, mahallalardagi katta hurmatga ega otaxonu onaxonlarning xizmati muhim ahamiyat kasb etadi.

Yana shuni aytish lozimki, nuroniy otaxonlar, onaxonlar va faol xotin-qizlarning “Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va inson hayotida oilaning o‘rnini yanada oshirish” yuzasidan O‘zbekiston yoshlariga Murojaati qabul qilindi. Shuningdek, haftaning shanba kuni mahallalarda “Ahil oila kuni” deb e‘lon qilindi. Ushbu muhim tashabbuslarning hayotga joriy etilishi zamirida oilalar mustahkamligini ta‘minlash mujassamdir. Shu o‘rinda aytish lozimki, keksa avlod vakillarining davlat va jamiyat hayotida, milliy urf-odat va an‘analarni rivojlantirishdagi ijtimoiy faolliklarini oshirish maqsadida joriy yilning o‘zida mahallalarda qator ma‘naviy-ma‘rifiy va targ‘ibot tadbirlari tashkil etildi. Joylardagi mavjud “Nuroniylar jamoatchilik kengashi”, “Keksalar maslahati” guruhi va “Buvijonlar maktabi” kengashi tomonidan ma‘naviy muhit barqarorligini mustahkamlash hamda oilaviy ajralishlarni oldini olish maqsadida 13 124 marotaba shu kabi madaniy tadbirlar bo‘lib o‘tdi. Yoshlarni turli huquqbuzarliklardan qaytarish, profilaktik hisobda turgan 3 274 nafar yoshlarni sog‘lom muhitga jalb etish maqsadida shu toifadagi yoshlar ishtirokida 7 mingdan ortiq ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazildi. Shu bilan birga keksa avlod vakillari tomonidan 97 nafar avf etilgan shaxslar va 5 865 ta notinch oilalar bilan muloqotlar o‘tkazildi.

2020 yil davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida keksalar, jumladan, yolg‘iz keksalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yaxlit va ta‘sirchan tizim yaratish zarurligi, bu toifa uchun ajratilayotgan ijtimoiy to‘lovlar miqdorini qayta ko‘rib chiqish kerakligini alohida ta‘kidlagan bo‘lsa, joriy yil “Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko‘ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g‘ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko‘zlagan marralarga albatta yetamiz. Nuroniy otaxon va onaxonlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz ham qarz, ham farzdir”[4], degan qat‘iy chorlovlari bilan ularga bo‘lgan yuksak ehtiromini namoyon etdi. Shuningdek, Respublika “Nuroniy” jamg‘armasining moliyaviy imkoniyatlari yana-da kengaytirilishi, buning uchun ushbu jamg‘armaga byudjetdan 100 milliard so‘m ajratilishi, o‘zgarlar parvarishiga muhtoj bo‘lgan 16 mingdan ziyod keksalarga yordam berish,

to'lovlar miqdorini oshirish, ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish vazifalari ham belgilab berildi.

3. Tadqiqot natijalari:

O'zbekiston aholisining qariyb o'ndan birinigina tashkil etayotgan keksa avlod vakillarining har biri nafaqat moddiy, balki ma'nan, ruhan ham qo'llab-quvvatlanishga munosibdir. Ma'lumot o'rnida aytish joizki, 2020-yil so'ngida yurtimizda pensiya va nafaqa oluvchilarning umumiy soni 3 million 824 mingni tashkil etgan bo'lsa, ularning 2 849 118 nafari yoshga doir pensiya oluvchilar, 402 nafari Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, 15 nafari esa mehnat fronti faxriylaridir. 2020 yil mazkur oylik ilk bor mamlakatimiz bo'ylab yuksak saviyada tashkil etilib, unga jami 56 ming 228 nafardan ortiq keksalar qamrab olindi. Ularning 10 151 nafari kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj nuroniylar ekani esa tadbirning ahamiyatini yana-da oshirdi[5].

Davlatimizning ijtimoiy himoyalash dasturlari asosida keksa avlod vakillarining **1 620 nafariga** nogironlar aravachasi, **1 532 nafariga** eshitish moslamasi, **1 600 nafariga** hassa (qo'ltiq tayoq), **400 nafariga** ko'zoynak, **3 005 nafariga** esa boshqa reabilitatsiya vositalari berildi.

Shu bilan birga ehtiyojmand oilalarda yashayotgan keksalarning xonadonlarida hashar o'tkazilib, ularga doimiy ravishda oziq-ovqat mahsulotlari hamda dori-darmon vositalari yetkazib berilmoqda.

“Keksalarni e'zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish - xalqimizga xos ezgu fazilat” g'oyasi ostida mamlakatimizning barcha hududlarida keng miqyosda o'tkazilayotgan ushbu haftalik davomida yurtimizdagi barcha mahallalarda nuroniylar, shu jumladan, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylarida istiqomat qilayotgan keksalar ishtirokida madaniy-ma'rifiy tadbirlar, tanlovlar, xayriya tadbirlari, jumladan, nuroniy va yoshlar o'rtasida turli sport musobaqalari o'tkaziladi. Joylarda yangi qad rostlayotgan “Nuroniylar maskani”, “Mahalla markazi” majmualari, fuqarolar yig'ini binolari hamda mahallalardagi boshqa ijtimoiy ob'ektlarning ochilish marosimlari bo'lib o'tadi.

Shuningdek, haftalik davomida pensioner, yakka, yolg'iz keksalar holidan xabar olinib, ularning uy-joy, maishiy muammolarini hal etishga ko'maklashiladi, oziq-ovqat mahsulotlari taqdim etiladi. Malakali shifokorlardan tashkil topgan “Tibbiyot avtobuslari” orqali respublikamizdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj nuroniylar chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi hamda zarur dori-darmon vositalari bilan ta'minlanadi. Bir so'z bilan aytganda, o'tkazilayotgan “Keksalar haftaligi” mahallalarda ijtimoiy-ma'anaviy muhitni yanada yaxshilash, nuroniylar salomatligini mustahkamlash va ularning jamiyatdagi faolligini oshirishda katta o'rin tutishi shubhasiz.

Rasmiy hukumat nashrlari O'zbekiston Prezidenti tomonidan imzolangan “Keksalar va nogironlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, “Saxovat” va “Muruvvat” maktab-internatlarini yanada rivojlantirish to'g'risida” [6]gi farmonni e'lon qildi.

So'nggi yillarda mamlakatda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, so'nggi to'rt yil ichida 27 ta tibbiy-ijtimoiy muassasada 267,2 milliard so'mlik qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi va zamonaviy talablarga javob beradigan 1327 yotoq joy yaratildi.

Sanatoriylarda reabilitatsiya qilingan keksalar va nogironlar soni 43 ming kishiga yetdi va 20% ga o'sdi, yolg'iz, yordamga muhtoj keksalar va nogiron kishilarga bepul tarqatiladigan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va gigiena vositalari ro'yxati 15 tadan 19 tagacha kengaytirildi, nogironlarga bepul beriladigan protez-ortopediya mahsulotlari va reabilitatsiya texnik vositalarining turlari 22 tadan 27 donaga ko'paytirildi. Jumladan, Prezidentimizning 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-81-son Farmoni[7] ga asosan, ijtimoiy hamjihatlik va adolatlilik tamoyillari asosida keksa avlod vakillarining hayot sifati va uzoq umr ko'rish darajasini oshirish, ularga sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ta'lim, madaniyat va transport tizimlaridan keng foydalanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, zamonaviy iqtisodiyotda keksa

avlod vakillarining huquqiy va moliyaviy savodxonligini oshirib borishga sharoitlar yaratish nuroniy va keksalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi.

Yuqoridagi Farmon ijrosini ta'minlash hamda islohotlar izchilligini ta'minlash maqsadida Prezidentimizning 2022 yil 1 martdagi "Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-147-son qarori[8]ga muvofiq, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi sifatida qayta tashkil etildi.

Mamlakatimizda keksalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning turmush darajasi va ijtimoiy faolliklarini yanada oshirish maqsadida 2022-yil 15-martda Prezidentning "Nuroniylarni har tomonlama qo'llab quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[9]gi PQ-167-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, mahallalarda "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyilini qaror toptirishda tashabbuskorlik ko'rsatayotgan ijtimoiy faol nuroniylarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, korxonalar va tashkilotlardagi "Faxriylar kengashlari", fuqarolar yig'inlaridagi "Keksalar maslahati" guruhlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, mehnat faxriylarining mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishdagi ishtirokini kengaytirish hamda "Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin" shiori ostida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan keksalar va nuroniylar holidan doimiy xabar olish tizimini tashkil qilish, shuningdek keksalar va faxriylarning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida "Nuroniylar maskani" majmualarida va mahallalarda turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish bo'yicha tartiblar belgilab berildi.

Ushbu qarorga ko'ra, "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyili asosida mahallalardagi yoshlarning tarbiyasi va axloqida bo'lgan ijobiy o'zgarishlardan kelib chiqib nuroniy va ziyolilar O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi mablag'lari hisobidan rag'batlantirib borildi. Shuningdek, mahallalarda aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar, maktablarda o'quvchilarning darslarni o'zlashtirishi, davomati, bandlikka ko'maklashish markazlari tomonidan fuqarolarni ish bilan ta'minlash darajasi va boshqa davlat xizmatlarining ko'rsatilishi bo'yicha nuroniylarning jamoatchilik nazorati o'rnatildi. Yuqoridagilardan tashqari, nuroniylarni faol qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022 yil 1 apreldan boshlab:

– o'zgaralar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz yashaydigan keksalar har yili bir marotaba sanatoriylarda bepul sog'lomlashtirildi;

– sharoiti og'ir va kam ta'minlangan keksalarga shifokorlarning retseptlariga asosan 3 oylik ehtiyojdan kelib chiqib dori vositalari olib beriladi hamda jarrohlik amaliyotlarining xarajatlari qoplandi;

– og'ir tashxisli kasalliklari hamda nogironligi bo'lgan keksalarga shifokorlarning retseptlariga muvofiq, 3 oylik ehtiyojdan kelib chiqib dori vositalarining 50 foizigacha bo'lgan summasi kompensatsiya qilindi.

– keksalarning jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi muassasalarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun abonement xarajatlari qoplandi;

– davlat teatrlari va muzeylariga keksalar uchun chipta narxlarini to'liq qoplab berildi.

Shu bilan birga, 2022 yil 1 maydan boshlab Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining "Call-markazi"ga qilingan murojaatlar asosida profilaktik, tibbiy davolanishlar va sayyohlik safarlari bo'yicha ma'lumotlar olish madaniy hordiq chiqarish maqsadida kinoteatrlar, teatrlar, muzeylar va boshqa madaniy tadbirlar to'g'risida to'liq ma'lumotlar olish, dori vositalari, protez-ortopediya moslamalari va kreslo-aravachalarni uyga yetkazib berish, kutubxonalarga a'zo bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz yashaydigan keksalar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun kitoblar, jurnallar, gazetalar va boshqa nashrlarni yetkazish bo'yicha axborot-servis hamda uy xizmatlarini ko'rsatish faoliyati yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda o'tgan 2025 yil davomida keksalar avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning salomatliklarini tiklash, bo'sh vaqtlarini mazmunli va qiziqarli tashkil etish,

hamda nuroniylarning ijtimoiy faolligini oshirish va yosh avlodni milliy an'analarimiz ruhida tarbiyalashga qaratilgan alohida tadbirlar amalga oshirildi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, mehnat fronti faxriylari, o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan 388 ming 327 nafar keksalarni dori-darmon vositalari, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash hamda tomorqalari va xonadonlarida yoshlar ishtirokida hasharlar o'tkazish kabi xayriya tadbirlari amalga oshirildi.

Jamg'arma va uning hududiy bo'limlari tomonidan mamlakatimizdagi mavjud Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazlarida istiqomat qilayotgan 750 nafar va "Muruvvat" internat uylarida istiqomat qilayotgan 1 ming 639 nafar nuroniylarning holidan xabar olinib, ular uchun esdalik sovg'alari va ijtimoiy yordamlar tashkil qilindi.

O'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz 1339 nafar keksalar sanatoriylarda bepul sog'lomlashtirildi, 2 mln. 327 ming 921 nafar nuroniylar bepul chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvdan o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirishga faol nuroniylarni jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024 yil 25 noyabrdagi PQ-405-son Qaroriga muvofiq, har bir mahallalarda katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan obro'e'tiborli 3 nafardan eng faol nuroniyni har biriga 5 tagacha kambag'al oilalarni birlashtirish ishlari amalga oshirildi. Natijada 9452 ta mahallalarda tanlab olingan 28 ming 356 nafar faol nuroniylarga jami 211 ming 426 ta kambag'al oila birlashtirildi.

Birlashtirilgan faol nuroniylar tomonidan kambag'al oilalarning mavjud tomorqalaridan samarali foydalanish maqsadida ularga 3 ming 218 ta issiqxonalar tashkil etilishida, 100 ming 265 dona parranda (tovuq, kurka, o'rdak)lar, 7 ming 418 bosh qoramol va qo'ylar olib berilishida amaliy yordam ko'rsatildi.

Kambag'al oila a'zolarining 25 ming 319 nafarini ishga joylashtirishda, 39 ming 319 nafarini kasbga yo'naltirishda, 57 ming 666 nafarini o'zini-o'zi band qilishda ko'maklashildi.

Olib borilgan amaliy ishlar natijasida 211 ming 426 ta kambag'al oilalardan 156 ming 693 tasi (74 foizi) kambag'allikdan chiqarildi.

Keksalarning katta hayotiy tajribasi va salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida mahallalar, ta'lim muassasalari, tashkilotlar va harbiy qismlarda boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan faol nuroniylar va o'rta avlod vakillarining yoshlar bilan 29 ming 537 marotaba "Uch avlod uchrashuv"lari tashkil etildi. Ularda 400 ming 461 nafar nuroniylar, 163 ming 672 nafar o'rta yosh hamda 945 ming 510 nafar kenja avlod vakillarining, shuningdek davlat mukofoti sovrindorlari, Jahon, Olimpiada va Paralimpiya musobaqalarining g'oliblari, taniqli yozuvchilar, olim va san'atkorlar ishtiroki ta'minlandi.

"Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyiliga muvofiq mahallalardagi hayotiy tajribaga ega bo'lgan 25 ming 133 nafar faol nuroniylar 242 ming 527 nafar uyushmagan va muammoli yoshlarga birlashtirildi.

Faol nuroniylarning davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida olib borgan sa'y-harakatlari va ko'rilgan chora-tadbirlari natijasida 55 ming 683 nafar yoshlarning bandligini ta'minlashga ko'maklashildi. 59 ming 372 nafari kasb-hunarga yo'naltirildi, 31 ming 594 nafar yoshlarning oilaviy ajrimlari oldi olindi, 40 ming 994 nafar jinoyat qilishga moyil bo'lgan yoshlarning jinoyat qilishi oldi olinib, 13 ming 467 nafari profilaktik hisobdan chiqarildi.

Faol nuroniylarning yoshlar bilan olib borgan ishlari va erishgan ijobiy natijalarining sarhisobi sifatida "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" ko'rik-tanlovining Respublika bosqichi Namangan viloyatida o'tkazildi. Tanlov g'oliblari va ishtirokchilar turli nominatsiyalar bo'yicha Diplom va qimmatbaho sovg'alar hamda "Navbahor" sanatoriysining yo'llanmalari bilan taqdirlandilar.

"Nuroniy har bir oilaga mas'ul" tamoyili asosida 18 ming 23 nafar nuroniylar 18 ming 23 nafar muammoli oilalarga birlashtirildi. Olib borilgan 51 ming 286 ta tadbirlar natijasida, 12 ming 114 ta oilalarda ajrimlar oldi olinib, 964 ta oilalar yarashtirildi, 3 ming 71 ta murosasiz va nizoli oilalarning munosabatlari yaxshilandi.

"Nuroniy va ota onalar kengashi" tomonidan oilalarda ahillik va milliy qadriyatlarini mustahkamlash, mahallalarda o'zaro hamjihatlik va yaxshi qo'shnichilik aloqalarini rivojlantirish,

nogironligi bo‘lgan, profilaktik hisobda turgan va kam ta‘minlangan shaxslarni jamoat tadbirlariga jalb qilish, muammoli va boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan oilalar bilan ishlash, mahallalarda sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy-ma‘naviy muhitni shakllantirish, to‘y va boshqa marosimlarni ixcham hamda kamxarj qilib o‘tkazilishi yuzasidan ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-son qaroriga muvofiq, jinoyat va huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida, “Keksalar maslahati guruhi” a‘zolari, xoji ota, xoji onalar, boy hayotiy tajribaga ega nuroniylar tomonidan mahallalarda, ta‘lim muassasalari, korxonalar va tashkilotlarda jami 91 ming 233 marotaba targ‘ibot tadbirlari va jinoyat sodir etishga moyilligi bo‘lganlar bilan bevosita suhbatlar o‘tkazildi.

Bugun yurtimizda istiqomat qilayotgan 3 mln.nafardan ziyod nuroniylar muhtaram Yurtboshimiz tomonlaridan ko‘rsatilayotgan bu qadar yuksak e‘tibor va g‘amxo‘rlikka javoban o‘z minnatdorchi-liklarini bildirib, doimiy duoda ekanliklarini izhor etishmoqda[10].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida “Oldimizga qo‘ygan maqsadlarni faqat o‘zimiz – katta hayotiy tajribaga ega mahalla raislari va faollari, hurmatli nuroniylarimiz, opa-singillarimiz, serg‘ayrat yoshlarimiz, ziyolilarimiz, ishbilarmon tadbirkorlarimiz, Vatan posbonlari, bir so‘z bilan aytganda, butun xalqimiz bilan birgalikda amalga oshiramiz”[11].

4. Хулосалар:

Xullas shuni alohida qayd etish lozimki, Yangi O‘zbekistonda o‘tgan yillar mobaynida nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularning davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rni va nufuzini oshirishga qartilgan ishlar salmoqli bo‘ldi va ijobiy natijalarini berdi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

- 1.Jamiyat 2016 yil 28.12.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga navbatdagi Murojaatnomasi. 2020 yil 25 yanvar.
3. <https://lex.uz/docs/2898879>
4. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>
- 6.Ijtimoiy hayot 14.04. 2021
- 7.Yangi o‘zbekiston 2022 yil 25 mart
8. <https://lex.uz/ru/docs/-5884143>
9. <https://lex.uz/uz/docs/-5884094>
- 10.<https://lex.uz/uz/docs/-5910513>
- 11.<https://president.uz/uz/lists/view/8834>
- 12.Ёрматов Ф. Янги ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоялашнинг кучайтирилиши ва халқимиз ҳаётидаги муаммоларни бартараф этишдаги ўзгаришлар (2016-2021 йиллар) //взгляд в прошлое. – 2021. – т. 4. – №. 11.
13. Ёрматов Ф. Ж. Мустақиллик йилларида ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида аҳолининг ижтимоий ҳимояси //взгляд в прошлое. – 2019. – №. 25.
14. Ёрматов Ф. Ж. Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоялаш тизими: ҳолати, шаклланиш жараёни, ривожланиш истикболлари (1991-2010 йиллар. Жанубий вилоятлар мисолида) : дис. – Doctoral dissertation, Автореф. дис.... т.ф.н. – Тошкент, Мирзо Улуғбек Номидаги Ўзбекистон Миллий университети, 2010, 30 б, 2010.
15. Yormatov F. J., Abdurashidov A. A. Humanitarian policy of Uzbekistan in providing the well-being of our people //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 1470-1476.
16. Mamlakatimizda nuroniylarni ijtimoiy himoyalashga qaratilgan insonparvar siyosat. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2025, [1/2/1]-b 82-84.
17. O‘zbekistonda nuroniylarni har tomonlama qo‘llab quvvatlashning ijobiy natijalari. // O‘tmishga na‘zar, взгляд в прошлое. – look to the past .№10 (2025)

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000